

MAKTABGACHA TA'LIMDA TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH

Tursunboyeva Zuxra Umid qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti «Maktabgacha ta'lim» metodikasi kafedra
o'qituvchisi*

zuxratursunboyeva97@gmail.com

Shohzoda Jumamurodova Ilhomovna

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti «Maktabgacha ta'lim» fakulteti
1-bosqich talabasi*

jumamurodvashohzoda@gmail.com

Annotasiya *3yoshdan 6yoshgacha maktabgacha bo'lgan davr rivojlanishiga ontogenetik imkoniyatlarning to'xtovsizligi orqali amalga oshiriladigan umumiy sensitivlik nuqtai nazaridan ilk go'daklik davrining to'g'ridan to'g'ri davomi hisoblanadi. Bu davrda bolada barcha harakat ko'nikmalarini rivojlanib, takomillashishiga davom etadi, biroq uning tevaragini o'rab turgan olam bilan muloqoti hozircha cheklangan. Asta-sekin bolalar mustaqil bo'la boradilar, ularning organizmi mustahkamlanadi, harakatlari ancha aniq, ishonchli, tezkor bo'ladi. Uy ro'zg'or buyumlari, o'yinchoqlar bilan bajariladigan harakatlarning takomillashuvi hayotiy tajribaning boyishiga yordam beradi. Harakatlar yanada aniq, ongli, maqsadli bo'lib qoladi*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, tarbiya, jarayon, faoliyat, rivojlanish, uslub, pedagogik texnologiya.*

O'zbekiston Prezidenti 2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorni imzoladi. Hujjat matnini O'zA keltirdi.

Hujjatga muvofiq, Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017—2021-yillarga mo'ljallangan dastur, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017—2021-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar rejasi, 2017—2021-yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning asosiy parametrlari, moliyalashtirish hajmi va manbalari, 2017—2021-yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha qisqa muddatli guruhlarini tashkil qilishning asosiy parametrlari tasdiqlandi.

Dasturning asosiy maqsadli vazifalari va yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish;

maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish;

maktabgacha ta'lim muassasalarida 5-6 yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha 6100 ta qisqa muddatli guruhni tashkil etish;

zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha

ta'lim muassasalariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish;

2200 ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan qishloq joylarda maktabgacha ta'lim muassasalarini yangidan qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, jihoz, o'quv-metodik qo'llanmalar va multimediali vositalar bilan ta'minlash.

Quyidagilar Dasturni amalga oshirishni moliyalashtirish manbalari etib belgilandi:

maktabgacha ta'lim muassasalarini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, shuningdek o'yin maydonchalari, bolalar ayvonlari qurish va ularning hududini o'rash maqsadlari uchun – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi mablag'lari (keyingi o'rinlarda Jamg'arma deb yuritiladi);

maktabgacha ta'lim muassasalari hududini obodonlashtirish va ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun – Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining mablag'lari;

maktabgacha ta'lim muassasalarini jihozlash uchun – O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;

xalqaro moliyaviy institutlar, tashkilotlar va donor mamlakatlar mablag'lari, yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Dastlabki yillarda va ayniqsa, dastlabki 3-5 yil ichida odamlar juda ko'p ma'lumotni o'zlashtira oladi. Miya birinchi yillarda eng tez o'sadi. Rivojlanishga mos dasturlarga ega yuqori sifatli va yaxshi tayyorlangan o'qituvchilar va maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarning ta'lim natijalarini yaxshilashga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Maktabgacha ta'limni qamrab oladigan rivojlanish sohalari turlicha. Biroq, odatda quyidagi asosiy mavzular taklif etiladi.

Jismoniy rivojlanish

Jismoniy salomatlik

O'yin

Jamoaviy ish

O'z-o'ziga yordam ko'rsatish ko'nikmalari

Ijtimoiy ko'nikmalar

Ilmiy fikrlash

Savodxonlik

Maktabgacha ta'lim tizimi tuzilma (ma'muriyat, sinflar soni, o'quvchi-o'qituvchi nisbati, xizmatlar), jarayon (sinfidagi muhit sifati, o'qituvchi va bolaning o'zaro aloqasi va boshqalar) va moslashtirish (standardlar, o'quv dasturi, baholash) komponentlariga rioya qiladi. O'quv dasturi turli yoshdagilar uchun mo'ljallangan. Masalan, 10 ga qadar hisoblash odatda to'rt yoshdan keyin amalga oshiriladi.

Ma'lumki, bugungi kunda bola kattalarning bevosita ta'sir natijasida, mustaqil faoliyat jarayonida, shuningdek, atrof-muhitdan olayotgan axborotlari ta'sirida rivojlanadi. Bolalar ko'p

o'yinchoq o'ynaydilar, harakatlanadilar va shu bilan birga atrofdagi voqealarni qiziqish bilan kuzatadilar, suvratlarni tomosha qiladilar, turli sabablar yuzasidan ota-onalariga murojat qilib, ularning topshiriqlarini bajaradilar.

3 yoshdan 6 yoshgacha maktabgacha bo'lgan davr rivojlanishiga ontogenetik imkoniyatlarning to'xtovsizligi orqali amalga oshiriladigan umumiy sensitivlik nuqtai nazaridan ilk go'daklik davrining to'g'ridan-to'g'ri davomi hisoblanadi. Bu davrda bolada barcha harakat ko'nikmalarini rivojlanib, takomillashishiga davom etadi, biroq uning tevaragini o'rab turgan olam bilan muloqati hozircha cheklangan. Asta-sekin bolalar mustaqil bo'la boradilar, ularning organizmi mustahkamlanadi, harakatlari ancha aniq, ishonchli, tezkor bo'ladi. Uy ro'zg'or buyumlari, o'yinchoqlar bilan bajariladigan harakatlarning takomillashuvi hayotiy tajribaning boyishiga yordam beradi. Harakatlar yanada aniq, ongli, maqsadli bo'lib qoladi.

To'g'ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur, xotira, tashabbus, tasavvur, mustaqillikning rivojlanishiga asosiy gigiyenik ko'nikmalar ming paydo bo'lishiga ko'maklashadi. Xuddi ilk go'daklik davridagi kabi maktabgacha yoshda ham atrofdagi olam to'g'risida yorqin tasavvurlarning shakllanishida bolalarining hissiy tajribalari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bu davrda o'yin faoliyatning yetakchi turiga aylanadi, lekin bu odatda bola, ko'p vaqtini qiziqarli o'yinlar bilan o'tkazgani uchun emas, o'yin bola psixikasida sifat o'zgarishlarini yuzaga keltiradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yini ancha murakkablashadi: unda hayotiy tajriba qo'lga kiritiladi, muayyan maqsad aniqroq namoyon bo'ladi, ijodiy tasavvur ko'zga tashlanadi va rivojlanadi. Yildan yilga bolaning aqliy rivojlanishida kattalarning og'zaki tushuntirishlar va topshiriqlari kattaroq ahamiyat kasb etib boradi.

Maktabgacha yoshdan oldingi davr - 1 yoshdan 3 yoshgacha. Bo'y o'sishi biroz sekinlashadi, harakat ko'nikmalari takomillashadi; nutq shakllanadi; bola ayrim gigiyenik ko'nikmalarni egallaydi;

- maktabgacha bo'lgan davr - 3 dan 7yoshgacha. Undan avvalgi davrdagi kabi u bo'y o'sishining bir oz sekinlashuvi bilan tavsiflanadi. Bola ortiqcha og'rlikni yo'qotadi, uning mushuklari mustahkamlanib, skeleti kuchli rivojlanadi. Maktabgacha davr oxirgi kelib sut yoshlarining almashinishi boshlanadi. Bola kattalar yeydigan ovqatga o'tadi, kasalliklarga tez chalinmaydigan bo'ladi.

3 – 6 yoshli bolalarning rivojlanishi. Maktabgacha davrda go'yo sog'lomlik va to'laqonli jismoniy rivojlanishning poydevori qo'yiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi tizimi, tuzilishning innovatsion qo'shimchalariga xos asosiy muammolar quyidagilardir:

- bolalarning psixik rivojlanish jarayoni sifatlarini rivojlantirish va asosiy jismoniy tarbiya vositalarida foydalanish imkoniyatlari;
- maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy sifatlarini rivojlantirish va asosiy harakatlarini shakllantirishning yosh xususiyatlari;
- maktabgacha bolalar muassasalaridan jismoniy tarbiyaning metodologik muammolari;
- maktabgacha jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlashning tashkiliy — mazmuniy asoslari

Bola ulg'ayib, esini taniy boshlagach, atrof –muhit va unda ro'y berayotgan voqea –

hodisalarga qiziqishi ortib boradi. Kun va tunning almashish, tabiat hodisalari va jonivorlarning yashash tarzi, atrofdagi olam haqida tezroq va ko'proq ma'lumot olishini, bu jarayonlarni qay tartibda kechayotganini bilishini istaydi. Ertak, hikoyalar va ularning qahramonlari orqali dunyoqarashi boyib, yaxshi va yomon, oq va qora o'rtasidagi tafovutni farqlab boradi.

Bolaning yosh xususiyatiga qarab kitoblarning tasniflanishi. 7 yoshli o'quvchilar endigina harf tanib, o'zidan o'qish ko'nikmalarini mustahkamlayotgan bo'lishadi. Shu sabab bolalarga tavsiya qilinadigan kitoblar mavzu va hajm jihatidan o'quvchi qabul qilish darajasida bo'lishi lozim. Quyidagi jadvalda birinchi va to'rtinchi sinf o'quvchilariga bir o'qishda necha so'zdan iborat matnlar xalqaro va milliy standartlar jadvali misol keltiriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish uchun tavsiya qilinadigan matnlar hajmi (so'zda)

1- sinf (7- 8 yosh o'uvchilari) 50 - 100 - 120 - 150 tagacha

2- sinf (8 - 9 o'quvchilai) 150 - 200 tagacha

3 - sinf (9 - 10) yosh o'quvchilari 250 - 350 tagacha

4 - sinf (10 - 11) yosh o'quvchilari 350 - 400 tagacha so'z

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. Xalq Ta'limi 2023 yil 5 sonli Toshkent
2. Z.U.Tursunboyeva „Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari asosida tarbiyalanuvchilarni atrof-alam bilan tanishtirish"-T.: „Образование, наука и инновационные идеи в мире”.
3. Z.U.Tursunboyeva „Maktabgacha yoshdagi bolalar atrof-alam bilan tanishtirish xususiyatlariga ko'ra tashkil etish shakllari"-T.: „Pedagog” jurnali 354-359
4. Pooja Jain «7 Amazing Kindergarten Critical Thinking Skills your Little One will Love» Atlas Mission <https://www.atlasmission.com/blog/7-amazing-kindergarten-critical-thinking-skills-little-one-will-love/>
5. Lori Bonati «12 Brainy Preschool Critical Thinking Games» Atlas Mission <https://www.atlasmission.com/blog/12-brainy-preschool-critical-thinking-games/>